

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLARNING QISQACHA QIYOSIY TAHLILI

Zayniddinova Irodaxon Botirjon qizi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi maqollarning ikki tildagi milliy-madaniy va universal xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Ushbu maqolada mashhur yozuvchi va olimlarning maqollar ustida olib borgan ishlaridagi xulosalari va maqollarning inson hayotidagi o‘rni, ahamiyati keltirib o‘tilgan. Turli tillardagi maqollarni qiyoslab o‘rganganimizda, ular o‘rtasidagi farq va o‘xshashliklarni aniqladik.

Kalit so‘zlar: til, maqol, lingvomadaniyat, qiyosiy tahlil.

Xalq yaratgan ma’naviy madaniyatning yaxlit bir butunligi bu albatta o‘sha xalqning maqollari hisoblanadi. Har bir halqning og‘zaki yoki yozma yodgorligini olib qaraylik, unda bani bashar xotirasida elas-elas saqlanib kelayotgan asotir-afsonalar, uzoq tarix qa’ridagi ibtidoiy tasavvur va tushunchalar, asr-asrlar davomidagi kuzatishlardan xosil bo‘lmish hayotiy hikmatlar qaymog‘i-insoniy tafakkur tajribasining in’ikosini ko‘ramiz. Ingliz va o‘zbek xalq maqollari ham ana shunday ming yillar ichida yig‘ilib, sayqal topgan ilmiy-badiiy tafakkur hosilasi sifatida yuzaga kelgan, xalq orasida aytilib, puxtalanib, avloddan avlodga eng yaxshi ma’naviy meroslardan biri bo‘lib o‘tib keladi. O‘tmishda yaratilib va ishlatilib kelinayotgan eng yaxshi maqollar, xalq donishmandlarining namunasi sifatida, hozir ham juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bunday maqollar va hikmatli so‘zlar har bir xalqning ma’naviy boyligining qimmatbaho xazinasini tashkil etadi.¹

Til millat ma’naviyatining ko‘zgusi sifatida uning tafakkur boyliklarini xalqning o‘ziga xos an’analari, o‘tmish tarixi, madaniyati, orzu-intilishlari bilan chambarchas bog‘liqlikda ifoda etadi. Biz xalq tilining betakror jozibasini, boy falsafiy, va hayotiy mushohadalarini, uzoq yillik turmush tajribasining xulosalarini bugungi kunda folklor, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, etnografiya, lingvokulturologiya (lingvomadaniyat) kabi sohalarning tadqiqot obyekti sifatida e’tirof etilayotgan maqollar misolida ko‘rishimiz mumkin. Mavjud adabiyotlarda maqol — xalq

¹ Mirzayev T. O‘zbek xalq maqollari. – T.: Sharq, 2012. – 512 b.



ogʻzaki ijodi janri; qisqa va loʻnda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal maʼnoli hikmatli ibora, chuqur mazmunli janr, deb taʼriflanadi. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuygʻulari, ijobiy fazilatlarini, xulosayu qarashlari mujassamlashgan. Davrlar osha maqollarning yangilari yaratilib kelinayotgani, qadimgilarining bir qismi unutilgani yoki jonli muomalada, tilda mavjudlarining maʼno doirasi kengayib yoki torayib borganligi ham sir emas. Aytish joizki, har bir xalqning maqollar zaxirasi oʻziga xosdir. Xalqlarning milliy xususiyatlari va madaniyatini aks ettirishda maqollarning oʻrni katta. Maqollarda nafaqat xalqning urf-odatlarini va milliy tushunchalari, balki tarixiy joylar, taniqli insonlar, xalq sevgan qahramonlar haqidagi qarashlar ham ifodalanadi. Shu nuqtayi nazardan keyingi yillarda maqollarni lingvomadaniy tadqiqot obyekti sifatida olib qarash va oʻrganish urfga aylandi. Mazkur tadqiqotimizning maqsadi ham maqollarni xalqning til va madaniy boyligi sifatidagi oʻrni va ahamiyatini yoritishdan iboratdir. Maʼlumki, XX-asrning oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosini oʻrganishni maqsad qilgan tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiya tez surʼatlarda rivojlandi. Lingvokulturologiya – “til va madaniyat”ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini oʻzida aks ettirgan hodisalar – til- madaniyatni birgalikda oʻrganadigan alohida ilmiy soha hisoblanadi. Zero, madaniyat, odatda, til vositasida bir avloddan boshqasiga oʻtadi. Maqollar xalq turmush tajribasi bilan vobasta holda insondagi namunaviy axloqiy sifatlar maʼqullanadigan, SHuni aytib oʻtish kerakki, koʻplab maqollarning har xil tillardagi shakllarida ham shaklan, ham maʼno jihatdan yoki umumiy bajarayotgan funksiyalaridan oʻxshashlik topsa boʻladi. Oʻzbek tilidagi ayrim maqollar ingliz maqollariga funksional jihatdan mos keladi.

Masalan, First think, then speak maqolini oʻzbek tilidagi muqobil varianti Avval oʻyla - keyin soʻyla maqoliga toʻgʻri keladi, chunki bu maqol har ikkala tilda aynan bir xil maʼnoga ega hamda uning grammatik tizimi ham ancha yaqin.

Soʻzlaguvchi nodon boʻlsa, eshituvchi dano boʻlsin maqolinining aynan nusxasi inglizchala yoʻq boʻlgani holda bu maqolni uning yaqinroq ekvivalenti bilan berish mumkin. Lekin uni If speaker is fool listener should be wise deb tarjima qilinsa uning oʻzbekcha qoloriti saqlanib qoladi va bu hammaga tushunarli boʻladi. Xuddi shu soʻzlarni Qassob moy qaygʻusida, echki - jon qaygʻusida maqoliga ham qoʻllab uni The butcher grieves for bacon, and the goat - for its life qabilida berilsa maʼqul boʻladi. Qizi borning nozi bor maqolini ingliz tiliga Who has a daughter that has a



whim qabilida berilsa Markaziy Osiyo xalqlari, xususan o'zbek urfodatlaridan bexabar ingliz o'quvchisi uni butunlay tushunmasligi mumkin. Ingliz tiliga uni Parents of the bride may be capricious (they can expose their own terms) deb tarjima qilishdan boshqa chora yo'q. Boshqa yo'li: bu maqol mazmunini beruvchi boshqa maqol topish lozim deb hisoblaymiz.

Bir-birlariga ma'no va stilistik vazifa jihatlaridan mos bo'lib, so'z tartibida kamdan-kam mos bo'lsa, sonda kamdan-kam farq qiladilar, leksik tarkib jihatidan farq qiladigan muqobil variantlar. Ularning ko'pchiligi shaklan milliy, mazmunan baynalmilaldirdar. Ular shakli bilan o'zlarining muayyan milliy tilga mansubliklarini tasdiqlasalar, mazmuni bilan jahon madaniyati va sivilizatsiyasi mahsuli ekanliklarini namoyon qiladilar.

Pigeon's milk Anqoning urug'i

Every dog is a lion at home Har kim o'z uyida bek

All bread is not baked in one oven Besh qo'l baravar ema

No pleasure without pain Gul tikansiz bo'lmas

Biror kamyob, kimmatbaxo, orzu qilib etib bo'lmaydigan narsani inglizlar «Pigeon's milk» (kabutarning suti), ruslar «Ptiche moloko» desalar, o'zbeklar «anqoning urug'i» (afsonaviy qush tuxumi) deydilar. Aslzoda jamiyat vakillari inglizlar va ruslar nazarida «Blue blood» (zangori kon), «Golubaya krov» hisoblansalar, o'zbeklar tasavvurida «Ok suyak»dirlar. Odamlardan allaqachon barchaga ma'lum sirni yashirishning bexudaligini obrazli ifodalash uchun ruslar «SHila v meshke ne utonesh» maqoliga murojaat qilsalar, o'zbeklar ushbu o'rinda «Oyni etak bilan yopib bo'lmas» maqolidan foydalanadilar. «Hamma odam bir xil emas» tushunchasini inglizlar obrazli tarzda «All bread is not baked in one oven» (barcha non bir tandirda yopilmaydi), o'zbeklar «besh qo'l baravar emas» deydilar.

Maqollar mavzu, ma'no va mundarija jihatidan juda chuqur va keng qamrovlidir. Birgina "baxt" tushunchali maqollarning o'zida ularning bevosita va bilvosita ma'no kasb etishi, tarkibiy tuzilishi yoki semantic qamrovi jihatdan rang-barangligiga guvoh bo'lish mumkin. Chunonchi, o'zbek tilidagi "baxt" tushunchali maqollar misolida qaraymiz:

- 1.Vatani borning -baxti bor.
2. Elning baxti-erning baxti.
- 3.Ahdi borning baxti bor.
- 4.Baxt-yalqovga begona.
- 5.Mehnat-baxt keltirar.



6. Tirishgan tog‘dan oshar, Ter to‘kkan baxtli yashar.

7. Tinchlik-baxt, sog‘lik-taxt.

8. Aqlli baxt topar, Baxt bilan taxt topar.

9. Bilim-baxt keltirar.

10. Yaxshi husn-yarim baxt.

11. Husn goh baxt keltirar, goh-kulfat.

Keltirilgan maqollarning aynan muqobili boshqa tilda, masalan ingliz tilida topilishi qiyin, albatta. Ammo izlanishlar natijasida ularga yaqin ma’noli shunday maqollarni ingliz tilidagi maqollar orasidan aniqlashga muvaffaq bo‘ldik:

1. The riches of the mind may make a man rich and happy.

2. Where ignorance is bliss, this folly to be wise.

3. If ignorance is bliss, why aren’t more people happy.

4. If mum isn’t happy, isn’t nobody.

5. Happy wife, happy life.

6. A cobbler formed the shape of shoes on a wooden foot shaped last. If it lasted long he was happy.

7. Happiness takes no account of time.

8. Happy is he that is happy in his children.

9. All happiness are in the mind.

10. Kindness brings happiness.

11. Happy is the bride the sun shines on.²

Baxt inson hayotida yuqori ahamiyatga ega, shuningdek, nisbiy, mavhum tushuncha. Dunyoni har kim o‘z qarichi bilam o‘lchaganidek, baxtni ham har kim o‘zicha tushunishi tabiiy. Donishmand xalqimiz aytmoqchi, o‘zingga ravo ko‘rgan narsani boshqaga ham ravo ko‘ra bilish, boshqalarning quvuch-u tashvishiga sherik bo‘la olish, o‘zgalarga baxt ulasha turib o‘z baxtiyorligini tuyish – mana shular haqiqiy baxt mezonlari emasmi?! Ko‘rinadiki, maqollar inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi, jamiyatning turmushi, madaniyati, ma’naviyati va tarixini o‘zida aks ettiradi. Turli tillarning maqollariga to‘xtalar ekanmiz, ular o‘sha til egasi bo‘lmish xalqning tarixiy, ma’naviy va moddiy madaniyatining ko‘zgusi ekaniga guvoh bo‘lamiz. Shu sababli, turli til maqollarini qiyosiy o‘rganish millatning o‘ziga xos madaniy va milliy qirralarini ochishga yordam berad

² Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: Sharq, 2010



Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'zbek xalq maqollari xalqimizning qadimiy va boy tarixga, havas qilguli darajada mustahkam va qudratli mentalitetga, boshqalardan kam bo'lmagan, maqtasa arzuguli milliy-madaniyatga ega bo'lgan xalqlardan biri sanalishini isbotlovchi muhim manba hisoblanadi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarning tahlili ushbu hodisaning ham milliy-madaniy ham umumiy xususiyatlarini e'tirof etish barobarida maqollar umumbashariy va milliy ahamiyat kasb etishini dalillaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev T. O'zbek xalq maqollari. – T.: Sharq, 2012. – 512 b.
2. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: Sharq, 2010.
3. Файзиёва, Азиза Анваровна. "ОРИЕНТАЦИОН КОНЦЕПТУАЛ МЕТАФОРЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ." In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION", vol. 1, no. 4, pp. 26-29. 2022.
4. Rabiyeva M. Difficulties of Differentiating Euphemisms and Dysphemisms //Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT. – 2022. – T. 2. – №. 5. – С. 127-132.
5. Rabiyeva, M. G. (2022). Dysphemism or Euphemism ?. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(6), 61-65.
6. Rabiyeva M. G., Asadova Z. Methods of Using Lexical and Grammatical Transformations in the Translation of Literary Texts //Spanish Journal of Innovation and Integrity. – 2022. – T. 5. – С. 492-494.
7. Файзиёва, Азиза Анваровна. "МЕТАФОРА ТАРЖИМАСИГА ТУРЛИ ҚАРАШЛАР: Fayziyeva Aziza Anvarovna, Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedrasida o'qituvchisi, Buxoro davlat universiteti." Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал 6.2. Махсус сон (2022): 36-40.

